



ESSE YOZISHDA MAHORAT VA USLUB

Nasridinova Gulbahor O'ktam qizi

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi ona tili

va adabiyot fani metodisti

g0069489@gmail.com

+998940069489

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13770613>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek adabiyotida essenavisligi taraqqiyotining bosqichlari tadqiq etilgan shu bilan birga jahon adabiyotida esse janrining paydo bo'lish davrlari ham ilmiy asoslari ko'rsatilgan. Shundan kelib chiqib, dastlab esse janrida ijod qilgan essenavislarning ijodi tahlillar asosida yoritildi.

Kalit so'zlar: Esse (badi'a), mahorat, uslub, biografiya, xotira.


Аннотация: В данной статье изучаются этапы развития эссе в узбекской литературе, одновременно рассматриваются и периоды возникновения жанра эссе в мировой литературе.

Ключевые слова: Эссе (искусство), мастерство, стиль, биография, память.

Abstrac: In this article, the stages of the development of essay writing in Uzbek literature are studied, at the same time, the periods of emergence of the essay genre in world literature are also shown.

Keywords: Essay (badi'a), skill, style, biography, memory.

Essega berilgan ta'rif vaqoialarda shuni ko'rsatadiki «hayot haqiqatlari»dan «badiiy haqiqat» chiqarib yozilgan asarlar esse nomi ostida birlashadi. Mishel Monten «Esselar» kitobining «kitobxonga» deb nomlangan muqaddima qismida shunday e'tirof etadi: «Kitobxon, bu samimiy asar. Men bu asarni eng yaqin jigarlarimga atab yozganman.....Qandaydir shon-shuxrat uchun emas, kitob orqali ma'naviy qiyofamni, fe'l-atvorimni, sajiyamni qayta tiklab eslashlarini istaymanbu kitobni mazmuni-men o'zim....?» Esse bugungi badiiy-hujjatli nasrning yetakchi yo'nalishlaridan birini tashkil etadi. Hayotiy, haqqoniy va holislikka asoslangan realistik idrok va ifoda madaniyati takomilida hujjatli adabiyotning o'rni beqiyos. Hayotiy dalillarga tayanib haqqoniy yaratish mayli-ishtiyoqi essechilikning keng palak yozishini taminlaydi. Bir so'z bilan aytganda ijodkorning tuyg'u-tafakkur madaniyati esse janri markazida turadi.Voqea-hodisa jarayonlarini ko'ngil ko'zidan, aql-idrokidan o'tkazadi, o'z munosabatini bildiradi. Shu ma'noda ijodiy ruhning parvozi-muallif individualligi, shaxs va jamiyat psixalogiyasini yaratishdagi nuqtai-nazari esse





janrining rivojlanishini belgilab beradi. O'zbek adabiyotshunosligida essening haqqoniylik masalasi mahsus tadqiq qilinmagan. Disertatsiyamizning mavzusidan kelib chiqib gapiradigan bo'lsak, hozirgi o'zbek adabiyotida deyarli hamma ijodkorlari esse janriga qo'l urganligini guvohi bo'lamiz. Bu esa o'z navbatida esse janr sifatida o'zbek adabiyotida taraqqiy topganligini bildiradi. O'zbek adabiyotida shukungacha yozilgan esselarni hisoblab qaraydigan bo'lsak ular son jihatdan juda katta o'rinni egallashi shubhasiz. Tadqiqotchi sifatida o'rgangan esselardagi haqqoniylik masalasini yoritib berish bizning asosiy ishimizdir. Asosiy ob'ektimiz O. Sharafiddinov va S. Ahmad esselarini tadqiq etish tadqiqotimizning muhim vazifasidir. «Biografiya yozish nihoyatda murakkab ish», - dedi filologiya fanlari doktori, professor Abdug'afur Rasulov. Biografiya yozuvchi, san'atkor, olim tadqiqchi, ixtirochi hayotning muhim, nozik tomonlarini ko'rsatib berishi zarur. Biografiyaning janr shakillari ko'p. Tanqidiy-biografik ocherk, adabiy potret, xotira, badia-esse, biografik asar janrlaridir.

Ozod Sharafiddinov yangi o'zbek adabiyotining namoyandalari haqida biografik-esse yozgan. Har bir munaqqid, adabiyotshunos «esse» yozishga o'zicha yondashadi, ko'nglidagini aks ettirishga intiladi. Olimning «Nutq» nomli esse tadqiqoti O. Yoqubov faoliyati mohiyatini yarq ettirib yoritgan. O. Sharafiddinov, A. Oripov haqida ko'p yozgan. Lekin «Muvashshah» essesida shoir haqidagi asosiy gapni ayta olgan. Olimning «Shunday shoir o'tgan edi» (Zohidjon Obidov) haqida, «Xayollar bandasi», «Mudom minnatdorman», «Umarbekovning o'lmas fazilatlari», «Otajon Hoshim shaxsiyati» «G'afur G'ulom kulgusi», «Kibriyo opaning holvasi», «Chinorlardan biri» (A. Qahhor), «Sizni sog'indim Zulfiya opa», «Jannati odam edi» (Charxiy), «Tenqurlarining sarvari» (Sarvar Azimov), «Muzayna Aliviya haqida», «Said Ahmadningsan'ati», «Yo'l boshchi», «Prizidentinga», «Inson hamisha mehrga muhtoj» kabi esselari bor. Ozod Sharafiddinov esse yozar ekan, u qahramonining bosh xususiyatini topib bitadi. Masalan u Oybekni millatni uyg'otgan adib ekanini chuqur anglab yetgan xuddi shunday G'afur G'ulomni ham bolalik davridan ko'rgan, bilgan, uning asarlari ijodi haqida ko'p yozgan, nihoyatda, G'afur G'ulom xalq hayoti bilan chambarchas bog'langan san'atkor ekani esselarida aniq ko'rsata olgan. O. Sharafiddinov esselaridagi o'z qahramonlarini juda yaxshi bilardi va shuning uchun ham qahramonning xarakteridagi bosh xususiyatni, asosiy nuqtani topa olgan. Tadqiqotimizning yana bir ob'ektimiz «Yo'qotganlarim va topganlarim» xotira-esselar kitobi muallifi Said Ahmad hozirgi kunda unitilmas xotiralarga aylangan atoqli adabiyot arboblari haqida





xotira kitob yozgan.Ular bilan uzoq vaqt birga bo'lgan. Xalq ardog'idagi bu benazir insonlarning nurli kunlarida ham,a'lam-istirob chekkan onlarida ham yonlarida bo'lgan, yozuvchining o'tkir nigohidan o'tgan sof haqiqatdir. Kitobning birinchi bobida tilga olingan va ajib mehr bilan tasvirlangan ustozlar endi yo'q. Ular xalqqa, vatanimiz badiiy xazinasiga qimmatbaho gavharlar qoldirib, o'zlari yo'qlik sari ketganlar. Yozuvchining badiiy mahorati yuksak darajada bo'lgani bois, asardagi tasvir rang-barangligini, asar mazmunini chiroyli qilib ifodalashni, ijodkor obrazlarini badiiylik talablari darajasida gavdalantira olishi, ularni kitobxonlar qalbiga jo etishni uddalay olganligini ko'rishimiz mumkin. Adabiyotda qisqalik, ixchamlik, iste'dodning doyasi deyiladi. Asar tilining bu fazilati, eng avvalo,adibning tabiiylikni ta'minlashi bilan o'lchanadi. Chunki, ijodda badiiy tilda tabiiylikni taminlamay turib, obrazlikni yuzaga keltirib bo'lmadi. «Yo'qotganlarim va topganlarim» asardagi har bir voqea-hodisalarning yuzaga kelishida yozuvchining o'zi ham ishtirok etgan, u esse qahramonlarini tanigan, ularning dunyo qarashini, nimalar tomon intilishini bilgan va shu holatni nazarda tutgan holda asarda tabiiylikni, obrazlikni, badiiy go'zallikni taminlay olgan. Adabiyotda inson ruhiy olamini kashf etar ekan, ijodkor mahorati ham bevosita inson qalbining kechinmalarini qaydarajada haqqoniy tasvirlay olishi bilan belgilanadi. Said Ahmad ham ijodkor ustozlarining obrazini yaratishda o'ziga xos bo'lgan ijodiy mahoratini qo'llayolgan. «Yozuvchi uchun bunyodkor mehnatni tasvirlashdan ko'ra muqaddasroq narsa yo'q. Chinakam badiiy asar ishlab chiqarish soxalarga qarab ajratilmaydi. Uning bir umumiy predmeti-azaliy va adabiy predmeti inson va uning ichki olami, jamiyatdagi o'rni, kurashi va mehnatidir»-degan edi yozuvchi Chingiz Aytmatov. Darhaqiqat, Said Ahmadning «Yo'qotganlarim va topganlarim» asaridagi qahramonlar doimo izlanishda bo'lgan yozuvchi, shoir, ziyoli, umman, olganda ijodkor shaxslar. Ularning ruhiy olami naqadar keng, musaffo, fikr-tuyg'ulari naqadar oliy janob. Ular adabiyot bog'ini gullatib ketgan: Oybek, G.G'ulom, A.Qahhor, Mirtemir, M.Shayxzoda, Shuhrat va boshqa buyuk zotlardir. Umuman olganda 90-yillarda o'zbek adabiyotida xotira yozish an'anasi keng palak yozdi. Xususan, bu davrda Said Ahmad «Yo'qotganlarim va topganlarim» xotira-esse kitobidan tashqari yana bir qancha shunga o'xshash xotira kitoblar yozildi. Jumladan, Sh.Xolmirzayevning (Saylanma.IV jild), Habibulla Qodiriyning «Otam haqida» xotirana vislarimiz orasida iste'dodli tarjimon, yozuvchi Nosir Fozilovning ham o'z o'rni bor Xotira yozish shunchaki, boshimizdan o'tkazgan harqanday voqealarni quruq bayon etishdan iborat emas. O'sha hikoya etilayotgan o'tmish voqealarini yod etish orqali, tarix sahifalariga muhrlash hamdir. Shu bilan birga






elimizda nomi tanish, adabiyotimiz tarixida chuqur iz qoldirgan iste'dodli insonlarning hayoti, ijodi va insoniy qiyofasi haqida jonli tasavvur berish, estetik ta'sir o'tkazish bosh vazifa sanaladi. Xotira kitobida birinchi yozilgan esse iste'dodli, nazokatli va madaniyatli adib O'lmas Umarbekov haqidagi «Azizim» essesi bilan boshlanadi. Xotira-esse muallifning adib bilan tanishuvi, «Gulxan» jurnalida nashr etilgan uning ilk hikoyasi, bu asarga turtki bergan Nosir Fozilovning adib bilan muloqatlari haqida tasavvur beradi. Ayniqsa, O'lmas Umarbekovning so'nggi kunlari va og'ir dard bilan olishgan adib hayoti ta'sirchan bayon etiladi. Ma'lumki, O'lmas Umarbekov haqida taniqli ijodkor, essenavis Sh.Xolmirzayevning «Binafsha hidlang amaki» turkum esselari ham yaratilgan. Har ikki muallif esse-xotiralarda O'lmas Umarbekovning nozik qabi, ichki madaniyati, ziyoli shaxs sifatidagi qator insoniy va adibona qiyofasini ochadi. Shu bilan birga xotiralardagi individual xotira yozish uslubi ham farqlanadi. Avvalo, ularda N.Fozilov va Sh.Xolmirzayevning faktlarga yondashuvda, kundalik turmush voqealarini saralab bayon etishida, muallifning xotiralardagi ishtiroki masalasida ko'pgina farqlar, o'ziga xosliklar namoyon bo'ladi. Shu ma'noda N.Fozilov va Sh.Xolmirzayev xotiralarida faqatgina muallifning o'zi ko'rgan tamonlari haqida yozilgan taassurotlar, mulohazalar mo'l-ko'lligini kuzatish mumkin. Ma'lumki, xotira janrining muhim tomonlaridan biri muallif shaxsan o'zi guvoh bo'lgan real voqealarni muayyan xronologik tartibda hikoya etadi. Shunga ko'ra memuar asar yozuvchi ijodkordan xotira janrining muhim prinsiplari fakt, xronologik bayon, shaxsan shohid bo'lgan voqea jarayonni haqqoniy bayon etishni talab etadi. Nosir Fozilov esselarining boshlanmasida voqealar kechayotgan yil, oy, haqida aniq qaydlar beradi.

Xotira kitobida «Oybek domla», «Kenglik», «Do'stlar quchog'ida», «Tosh», «Yegor Sumaylovich», «O'zbek bo'lsang beri kel» «O'kinch» hikoyalari bevosita Oybek shaxsiyati va adibning qozoq adibi Sobit Muqonov bilan do'stona munosabatlariga bag'ishlangan.

Unda bir guruh o'zbek adiblarining Qozog'istonga tashrifi (1962-yil 15-may)da o'n kunlik dekada voqealari hikoya etilar ekan, essenavis butun diqqatini-e'tiborini Oybekka qaratadi. Esseda adibning bag'ri kengligi, nozik, ta'sirchan, shoirona qalbi ochiladi. Sobit Muqonovning Oybekni soyda ko'rib hayratlangan, hayajonlangan muhtasham toshni adibga tuhfa etishi hikoya etilar ekan asrlar davomida bir-biriga qondosh ikki xalq va bu ikki millat adabiyotining zabardast adiblari siymosida xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik, insoniy qadr-qimmat masalasi qalamga olinadi. Esse qahramonlari muallif nigohi bilan ochilar ekan, hech qanday sun'iy bo'rttirish alomatlari ko'zga





tashlanmaydi. Ba'zi xotira-hikoyalarda muallifning shaxsan o'zi harakatlanadi, voqealarda muallifning shaxsan o'zi ishtirok etmaydi. Qahramonlar o'zi harakatlanadi, voqealarni o'z tilidan bayon etib beradi. «Oybek zamondoshlari xotirasida» kitobida ham Sobit Muqanovning adibga tuhfa etgan tosh haqidagi xotiralari ham o'rin olgan. Ko'rib turganimizdek, Nosir Fozilov hech bir voqeani o'zi bichib to'qimagan, real voqealarni hayajonli, badiiy asar yozgandek shirali tilda bayon etgan.

Yozuvchining badiiy mahoratiga va uslubiga tan beramiz. Esse –publitsistikaning ta'sirchan janrlaridan biri shu ma'noda u jurnalistika va badiiy adabiyotning o'rtasida turadi, birini ikkinchisiga bog'laydi, fikrni charxlab, yozilajak yangi asarlarga achitqilik qiladi. Esse –bu janr olam va odamni anglashning g'oyat samarali vositasi ekanini yozuvchining ham jurnalistning ham yozgan esselarini o'qib anglaymiz.. Xotira –hujjat degan so'z. Biroq bu hujjat tagiga idora xodimi emas, balki qalb atalmish kotib imzo chekadi. Minnatdor zamondoshlar qalbida unib chiqqan xotiralar mutaxassislar uchun ijodkor hayoti va ijodiga oid qimmatbaho hujjatlar bo'lib qoladi. Keyinchalik bu xotiralar to'ldiriladi. Ular asosida ijodkorga bag'ishlangan ilmiy va badiiy asarlar yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Said Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim.-T.:Sano-standart,2014.
- 2.Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti.-T.:Sharq, 2004
- 3.Fozilov N. Ustozlar davrasida. -T. :Yosh gvardiya. 1988.
4. <https://kh-davron.uz>. Esse – erkin ijod.

